



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2025

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий  
педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Nilufar Djurayeva</b> SOVET HOKIMIYATINING IJTIMOIIY - IQTISODIY SIYOSATIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING MAQSAD-VAZIFALARI.....	5
<b>2. Guldonga Taniyeva</b> O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMIDAGI O'ZIGA XOSLIK: O'TMISH VA BUGUN.....	15
<b>3. Hikmatjon Avezov</b> O'ZBEKISTONNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI BILAN ATROF-MUHIT HIMOYASI SOHASIDAGI HAMKORLIK TARIXI.....	20
<b>4. Iskandar Samadov</b> XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI (XXSR)DA YER-SUV MASALASI VA PAXTACHILIKNING QAYTA TIKLANISHI.....	27
<b>5. Фируза Абдюсупова</b> В ПОИСКАХ НЕИЗВЕДАННОГО: РУССКИЕ ЭКСПЕДИЦИИ И РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНЫЕ ПОХОДЫ В ПАМИРЕ (XIX BEK).....	34
<b>6. Nasiba Narzullayeva</b> SOVET DAVLATI SIYOSATIDA XORIJDA TA'LIM OLGAN O'ZBEK XOTIN- QIZLARINING QATAG'ON QILINISHI.....	41
<b>7. Istora Jo'rayeva</b> XOTIN-QIZLAR MAVZUSINING YORITILISHIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	50
<b>8. Muslima Makhmudovna Bazarova</b> THE ACTIVITY OF SHELTERS IN UZBEKISTAN.....	55
<b>9. Diyora Chorshanbiyeva</b> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING SHAKLLANISHI.....	60
<b>10. G'unchaxon Baxodirovna Alimova</b> O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM OLIISH SOHASI YO'NALISHLARI VA UNING S IFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR.....	65
<b>11. Mohira Matnazarova</b> KO'CHMANCHI CHORVADORLAR HAYOTINING YOZMA MANBALARDAGI INTERPRETATSIYASI.....	71
<b>12. Iroda Tishabayeva</b> 1950–1970 YILLARDA O'ZBEKISTON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR OVQATLANISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....	76



**Iskandar Ismatovich Samadov,**  
Qarshi davlat universiteti tayanch doktorant  
e-mail: iskandarsamadov9@gmail.com

## XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI (XXSR)DA YER-SUV MASALASI VA PAXTACHILIKNING QAYTA TIKLANISHI

**For citation:** Iskandar I. Samadov. LAND AND WATER ISSUES AND THE RESTORATION OF COTTON FARMING IN THE KHOREZM PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 6, pp.27-33

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15806072>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Xorazm Xalq Sovet Respublikasida (1920 – 1924-yy.) olib borilgan agrar siyosatning ikki asosiy yoʻnalishi – yer-suv islohotlari va paxtachilik tarmogʻining qayta tiklanishi jarayoni tahlil etiladi. Unda yer egaligi tizimidagi oʻzgarishlar, sugʻorish infratuzilmasining rivojlanishi va dehqon xoʻjaliklarini moddiy qoʻllab-quvvatlash choralarining mazmuni yoritiladi. Paxtachilikning strategik ahamiyati, bu sohaga qaratilgan davlat siyosati va uning Rossiya manfaatlariga xizmat qilgan jihatlari ham oʻrganiladi. Manba sifatida XXSR arxiv hujjatlari, davr matbuoti, hukumat qarorlari va ilmiy adabiyotlar keng jalb qilingan. Tadqiqotda tarixiy, tahliliy va statistik usullar asosida XXSRdagi agrar siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari aniqlanadi.

**Kalit soʻzlar:** Xorazm Xalq Sovet Respublikasi. yer-suv islohoti, paxtachilikni tiklash, sovet agrar siyosati, sugʻorish tizimi, dehqon xoʻjaliklari, paxta shirkatlari.

---

**Искандар Исмаатович Саматов,**  
Каршинский государственный университет, докторант  
e-mail: iskandarsamadov9@gmail.com

## ВОССТАНОВЛЕНИЕ ХЛОПКОВОДСТВА И ЗЕМЕЛЬНО-ВОДНЫЙ ВОПРОС В ХОРЕЗМСКОЙ НАРОДНОЙ СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ (ХНСР)

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются два основных направления аграрной политики, проводимой в Хорезмской Народной Советской Республике (1920 – 1924 гг.) – земельно-водные реформы и восстановление хлопководства. Рассматриваются изменения в системе землевладения, развитие ирригационной инфраструктуры и меры по материальной поддержке крестьянских хозяйств. Также изучается стратегическое значение хлопководства, государственная политика в этой сфере и её служение интересам Советской России. В качестве источников использованы архивные документы ХНСР, материалы периодической печати, правительственные постановления и научная литература. С помощью исторического, аналитического и статистического методов в исследовании выявлены социально-

экономические результаты аграрной политики, проводимой в Хорезмской народной советской республике.

**Ключевые слова:** Хорезмская Народная Советская Республика; земельно-водная реформа; восстановление хлопководства; советская аграрная политика; ирригационная система; крестьянские хозяйства; хлопковые компании.

**Iskandar I. Samadov,**  
Karshi State University, doctoral student

## LAND AND WATER ISSUES AND THE RESTORATION OF COTTON FARMING IN THE KHOREZM PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC

### ABSTRACT

This article analyzes two key directions of the agrarian policy implemented in the Khorezm People's Soviet Republic (1920 – 1924) – land and water reforms, and the restoration of the cotton sector. It examines changes in land ownership systems, the development of irrigation infrastructure, and the measures taken to provide material support to peasant farms. The strategic importance of cotton, the state policy aimed at its expansion, and its role in serving the interests of Soviet Russia are also explored. The study is based on archival documents from the KhPSR, contemporary press materials, government decrees, and relevant academic literature. Through historical, analytical, and statistical methods, the article reveals the socio-economic outcomes of the agrarian policy carried out in the Khorezm.

**Keywords:** Khorezm People's Soviet Republic; land and water reform; restoration of cotton farming; Soviet agrarian policy; irrigation system; peasant farms; cotton companies.

### Dolzarbligi:

Yer-suv munosabatlari va paxtachilik masalasi sovet hokimiyatining dastlabki yillarida olib borgan agrar siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Davlat tomonidan agrar sohani qayta tashkil etish, feodal mulkchilik qoldiqlarini tugatish va qishloq xo'jaligini, ayniqsa paxtachilikni strategik tarmoqqa aylantirish jarayonlari mintaqalarda turlicha kechdi. Aynan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tajribasi bu borada alohida e'tiborga loyiq. Bu respublika hududida yer egaligi shakllari, suv resurslaridan foydalanish siyosati va paxtachilikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan choralar agrar tuzumni tubdan o'zgartirish yo'lida muhim tarixiy bosqich bo'ldi.

**O'rganilganlik darajasi:** Mazkur maqolani tayyorlashda Xorazm Xalq Sovet Respublikasida 1920 – 1924-yillarda amalga oshirilgan yer-suv siyosati va paxtachilikni tiklash jarayoniga doir tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar keng o'rganildi. Xususan, tarixchi olimlar Q.Rajabov, B.Madaminova, O.Qo'shjonov, A.Pardaev, Sh.Saidov va boshqalarning XXSR agrar siyosatiga oid ilmiy ishlari asos qilib olindi. Shuningdek, O'zbekiston Markaziy Arxivining R-71, R-73, R-74 fondlariga mansub hujjatlar, hukumat qarorlari, davr matbuoti materiallari hamda "История Хорезмской Народной Советской Республики. Сборник документов", "50 лет Хорезмской народной советской революции" kabi ilmiy to'plamlar tahlil qilindi. Foydalanilgan hujjatlar va adabiyotlar XXSRdagi agrar o'zgarishlarning mohiyati, ularning mahalliy iqtisodiyot va sovet siyosati bilan bog'liqligini yoritishda asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

### Tadqiqot metodologiyasi:

Ushbu tadqiqotda eng avvalo umumiy nazariy qarashlar ko'rib chiqilib, so'ngra Xorazm Xalq Sovet Respublikasi misolida amaliy holatlar tahlil qilindi. Ishlab chiqilgan reja asosida yer egaligi tizimi, suv taqsimoti, paxta yetishtirish, davlat aralashuvi, moliyalashtirish va eksport siyosati kabi yo'nalishlar bosqichma-bosqich o'rganildi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy usullardan foydalanildi:

– Tarixiy usul – XXSRda yuz bergan voqealarni xronologik tartibda izchil bayon qilish uchun;

– Tahliliy yondashuv – yer-suv siyosati bilan paxtachilik jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash uchun;

– Statistik usul – paxta ekin maydonlari, hosil hajmi, ajratilgan moliyaviy mablag‘lar kabi raqamli ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda;

– Manbashunoslik usuli – arxiv hujjatlari, hukumat qarorlari va davr matbuoti materiallaridan foydalanish orqali asosiy dalillarni aniqlash uchun.

Tadqiqot davomida ilmiy xolislik, manbalarni to‘g‘ri ko‘rsatish, faktlarga tayanish va tarixiy voqealarni asosli tarzda yoritish tamoyillariga qat‘iy amal qilindi.

### **Tadqiqot natijalari:**

1920-yil 2-fevralda qizil askarlar qismlari va yosh xivaliklar tazyiqi ostida Xiva xoni Said Abdullaxon taxtdan voz kechganligi haqidagi manifestni imzoladi. Shu tariqa, qizil armiya qismlari yordamida Xivada davlat to‘ntarilishi amalga oshirilib, monarxiya tuzumi ag‘darib tashlandi. Rossiya hukmron doiralari, Turkkomissiya va Turkfront vakillari Xiva xonligida harbiy bosqinchilik yo‘li bilan amalga oshirilgan davlat to‘ntarishini “inqilobiy harakat”, “xalq inqilobi” deb atadilar[1]. Ammo bu ishlar ichki kuchlar tomonidan tinch yo‘l bilan emas, balki tashqi kuchlar – sovet Rossiyasi va bolsheviklarning harbiy qismlari tomonidan amalga oshirilgan edi. Yosh xivaliklar partiyasi rahbarlari hokimiyatga Qizil Armiya va bolsheviklar yordami bilan kelgan bo‘lsalar ham, Xorazmda yashayotgan aholining keng qatlamlari manfaatlarini uchun kurashdilar[2]. Biroq Markaz o‘zining mintaqaga yuborgan ishonchli vakillari orqali respublikadagi siyosiy va iqtisodiy masalalarni Rossiya manfaatlarini tomon burishga harakat qildi.

1920-yil 26 – 30 aprel kunlari Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan Xorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xorazm Sovet Xalq Respublikasi tuzilganligi e‘lon qilindi. Xorazm Sovet Xalq Respublikasi tashkil etilgach hukumat oldida turgan dastlabki vazifa xalq xo‘jaligini tiklash orqali mamlakat iqtisodiyotini zamonaviy darajaga ko‘tarish bo‘ldi. Xorazm iqtisodiyotining asosini dehqonchilik, chorvachilik, mahalliy hunarmandchilik va qisman sanoat sohasi tashkil etgan bo‘lib, ayniqsa dehqonchilikda eng daromadli hamda eksportbop mahsulot sifatida paxtachilik alohida o‘rin egallagan.

Xorazm Sovet Xalq Respublikasi hukumati butun o‘lka xo‘jaligi og‘ir bo‘lgan bir sharoitda ishga kirishdi. Ayniqsa urushdan oldin katta daromad keltirgan paxtachilik sohasi barbod bo‘lgan edi. Jumladan, Xiva xonligida 1915-yilda paxtaning yalpi hosili 1 million 740 ming pudni tashkil qilgan bo‘lsa, 1920-yilda 100 ming pudga, ya‘ni 5-6 yil davomida paxtaning umumiy hosil miqdori qariyb 18 martaga kamaygan edi. Xorazm dehqonchiligida azaldan bug‘doy, sholi va paxta asosiy ekin turlari sifatida yetishtirilgan bo‘lsa, Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan agrar siyosatda ayniqsa paxtachilikni rivojlantirish davlat darajasidagi muhim vazifaga aylantirildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad XXSRda paxtachilikni rivojlantirish orqali Rossiyaning paxtaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish edi. Mamlakatda paxtachilikni qayta tiklash uchun eng avvalo yer-suv masalasini hal etish lozim edi.

Xiva xonligi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida feodal monarxiya tuzumiga asoslangan mamlakat bo‘lib, unda yerga va suvga egalik qilishda, aholidan son-sanoqsiz soliq va yig‘imlar undirishda, fuqarolarning davlat oldidagi turli majburiyatlarini bajarishida asrlar davomida shakllangan tartib-qoidalarga amal qilib kelingan edi[3]. Bu davrda Xiva xonligida yer egaligining asosan uchta turi mavjud bo‘lib, bular davlat yer egaligi, xususiy yer-mulk egaligi va vaqf yer egaligidan iborat bo‘lgan. Odatda, katta yer egalari yelari magistral kanalning boshi yoki o‘rta qismida suvga qulay joyda joylashgan bo‘lib, qazuv azobini tortgan kam yerli dehqonlarning yerlari kanalning oxirgi qismida edi. 1917-yilda Xiva xonligida 107600 xo‘jalik bo‘lib, uning 91 foizdan ziyodi dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, 1920-yilga kelib xo‘jaliklar soni 76270 tagacha kamayib, ekin maydonlari hajmi 66,7 foizga qisqarib ketgan edi[4]. Xo‘jaliklar sonining kamayishi va ekin maydonlari hajmining keskin qisqarishiga birinchi jahon urushi, inqilobiy harakatlar, suv inshootlarining vayron bo‘lishi kabi omillar sabab bo‘lgan.

Yosh xivaliklar avvalboshdanoq xon istibdodi ag‘darilgandan so‘ng yer va suv berish haqida radikal sotsial-iqtisodiy rejalarni amalga oshirishga va‘da bergan edilar. Butun Xorazm xalq vakillarining I qurultoyida Ziroat nozirliqi (qishloq xo‘jaligi nozirliqi) tashkil qilindi va unga

respublikada yer-suv ishlari bilan shug'ullanish vazifasi yuklatildi. XXSR Ziroat nozirligi dastlab xon va uning amaldorlari, yirik yer egalari qarashli yer-mulklar, to'qay va ko'llar, mehnat qurollari va ish hayvonlari hamda urug'lik donni musodara qilib, ularni Qizil Armiya oilalariga, yersiz va kam yerli dehqonlarga taqsimlab berdi.

XXSRda 1920 – 1921-yillar davomida musodara qilingan yerlar hisobiga kambag'al dehqonlar, qarollar (batraklar), bewatanlar, korandalar va vaqfchilarga 10 ming desyatina yer bo'lib berildi. Shuningdek, ularga qishloq xo'jalik asbob-uskunalari, urug'lik, chorva mollari, uy-joy va boshqa narsalar ham tarqatildi.

1922-yilda yersiz, kam yerli dehqon xo'jaliklarini yer, ish hayvonlari va mehnat qurollari bilan ta'minlash maqsadida Davlat yer fondi tashkil qilindi [5]. Yer fondi tomonidan 1922-yil oktabrdan 1923-yil apreligacha xon, uning qarindoshlari va amaldorlari, yirik yer egalari tortib olingan 62400 tanob yerlarning 7250 tanobi 1170 kambag'al dehqon xo'jaliklariga bo'lib berildi [6].

Mamlaktdagi ekin ekiladigan yerlarning 50%ni vaqf yerlari tashkil qilgan. Bolsheviklar vaqflarga tegishli yerlarni iloji boricha tezroq davlat nazoratiga olish choralarini ko'rishdi. Vaqf to'g'risidagi masala 1920-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan Butun Xorazm xalq vakillarining I qurultoyida va 1921-yil 23-mayda bo'lgan Butun Xorazm xalq vakillarining II qurultoyida ko'rib chiqilgan. Har ikkala qurultoy qarorlariga ko'ra, vaqf mulklari daxlsiz deb e'lon qilingan va vaqf mulklari XXSR Maorif nozirligi ixtiyoriga berilgan. Musulmon ruhoniylarining mahalliy aholiga chuqur ta'sirini hisobga olgan holda, vaqf yerlari darrov davlat mulkiga aylantirilmadi. Biroq, vaqf mulklaridan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish davlat ixtiyoriga o'tdi. 1923-yil Butunxorazm xalq vakillarining IV qurultoyida "Vaqf yerlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va unga ko'ra barcha vaqf yerlari davlat mulkiga aylandi. Natijada, 1272 ta diniy muassasa, umumiy 500 ming tanob, shu jumladan dehqonchilikka yaroqli 178 ming tanob yeridan mahrum bo'ldi [7].

1920 – 1924-yillarda, yani Xorazm respublikasining shakllanishi va rivojlanishi davrida Xorazmda suvdan foydalanishni tartibga solish va sug'orish kanallarini barpo etish masalasi Xorazm Xalq Sovet Respublikasi agrar siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki, bu vaqtda respublikadagi sug'orish inshootlari ishdan chiqqan va ta'mirlashga muhtoj edi. 1921 – 1922-yillarda Xorazmda, xususan, Turkman viloyatlarida irrigatsiya tarmoqlarini kapital ta'mirlash, yangi kanallar qurish ishlari olib borildi. 1921-yildagi kanallarni qazish va sug'orish inshootlarini ta'mirlash ishlariga 10 minglab dehqonlar qatnashdi. Hasharda o'zbeklar bilan birga turkman dehqonlarining salmoqli qismi ham jalb etildi [8].

1921-yilda Butunxorazm sovetlarining II qurultoyida XXSR Qishloq xo'jaligi nozirligi qoshida Hojiboy Aminatdinov boshchiligida 9 kishidan iborat Markaziy irrigatsiya boshqarmasi tashkil etiladi. Markaziy irrigatsiya boshqarmasi umumiy uzunligi 7 ming km dan ortiq bo'lgan 10 ta yirik magistral kanal va 138 ta suv tarqatuvchi inshootlarga mas'ul bo'ldi.

Suvdan foydalanishni tartibga solish masalasi XXSRning butun faoliyati davomida sovetlarning diqqat markazida bo'lib keldi. Jumladan, Xorazm Respublikasi MIQning 1924-yil 18-maydagi farmoyishida hatto shunday deyilgan edi: "Butun respublika bo'ylab suv masalasi harbiy masala bilan bir qatorda ko'rib chiqiladi... Barcha nozirlik va davlat idoralariga dehqonlarning suv masalalari bo'yicha barcha murojaatlarini ustuvor vazifa sifatida ko'rib chiqish va zudlik bilan hal etish zarurligi taklif etilsin" [9].

Rossiya tashabbusi bilan rus olimlari ishtirokidagi ekspeditsiya Xorazm Respublikasining iqtisodiy ahvoli va uning rivojlanish imkoniyatlarini o'rganish uchun yuboriladi. Ulardan biri mashhur olim, injener-irrigator F.P.Morgunenkov boshchiligidagi ekspeditsiya 1921 – 1924-yillarda Xorazmning sug'orish tarmoqlarini hamda yer-suv resurslarini o'rganish ishlarini olib boradi. Rossiyadan kelgan maxsus ilmiy-iqtisodiy ekspeditsiyaning xulosalaridan keyin RSFSR tomonidan XXSRga faqat sug'orish inshootlarini takomillashtirish uchun 1 mln 476 ming 742 so'm kredit ajratildi. Natijada 1922 – 1923-yillarda Xorazmda 13 damba, 8 ta suv bandlari, 2 ta yangi ariq qazilib ishga tushirildi [10]. Albatta, uzoqni ko'zlab qilingan bu ishlardan Rossiya kelajakdagi o'z manfaatlarini o'ylagan edi.

1921-yil 4 – 11-dekabrda Xiva shahrida yersiz va kam yerli dehqonlarning birinchi qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda kambag'al dehqonlarni yer-suv, ish hayvonlari, mehnat qurollari, urug'lik don,

qarz puli bilan ta'minlash masalalari ko'rib chiqildi[11]. Dehqon xo'jaliklarini muntazam moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida qishloq xo'jaligi banki tashkil etildi. Qurultoy qaroriga asosan, 1922-yil bahorida 3 milliard so'm ustav kapitaliga ega bank faoliyat boshladi[12]. Bank shu yilning o'zida kambag'al dehqon xo'jaliklariga 1,5 mlrd so'm miqdorda qarz puli berdi.

Xorazm hukumati milliy sanoatni tiklash, ishga tushirish va yangilarini qurish maqsadida katta pul mablag'ini – salkam 1 mln. so'm pul ajratdi. Bundan tashqari, RSFSR hukumati paxta tozalash va yog' ishlab chiqarish zavodlarini ishga tushurish uchun 575006 so'm miqdorida ssuda ajratdi. Bunday harakatlar natijasida 1924-yil boshlariga kelib 6 ta paxta tozalash, 1 ta yog' va boshqa zavodlar ishga tushurildi.

1920-yilning ikkinchi yarmida Xorazm Respublikasining RSFSR bilan savdo aloqalari tiklana boshladi. Aynan shu davrda Xorazmdan Rossiyaga 150 ming pud paxta tolasi jo'natilgan. 1921-yil iyun oyida Xorazm hukumati tomonidan paxtachilik sohasini tartibga solish maqsadida maxsus "Paxtachilik qo'mitasi" tashkil etildi. Qo'mitaning tuzilmasi ish yuritish, kooperatsiya va texnika bo'limlaridan iborat edi.

Mazkur qo'mitaning asosiy vazifalari quyidagilar edi:

1. RSFSRning To'rtko'l hududida joylashgan va natsionalizatsiya qilingan barcha paxta hamda yog' ishlab chiqarish zavodlarini qabul qilib olish va ularni ishga tushirish;
2. Paxtachilik sohasini to'liq davlat tasarrufiga o'tkazish va paxta tolasi mahsulotlarini davlat hisobiga musodara qilish;
3. Dehqonlarni ixtisoslashtirilgan kooperativ bo'limlarga jalb etish va joylardagi boshqaruvni yo'lga qo'yish.

Xorazm hukumati ham dehqonlarning moddiy rag'batini oshirish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Xususan, paxta yetishtiruvchilar uchun turli imtiyozlar joriy qilindi, uzoq muddatli kreditlar juda past foiz stavkalarda ajratildi, ayrim soliqlar kamaytirildi yoki butunlay bekor qilindi. 1922-yil boshlarida paxta ekish kampaniyasini qo'llab-quvvatlash uchun Xorazm Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan 250 million so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratilgan. Ushbu mablag'lar sug'orish tizimlarini kengaytirish, yangi ariqlar va kanallar qazish, shuningdek, daryo hamda kanal bo'ylarida himoya dambalarini mustahkamlash ishlariga yo'naltirilgan. Shuningdek, har 50 pud paxta topshirgan dehqonlarga mukofot sifatida hisobdan tashqari tarzda qo'shimcha rag'batlantiruvchi vositalar berilgan. Ular orasida 2 dona ketmon, 6 funt g'ildirak moyi, 5 pud urug'lik, 50 funt tuz hamda 90 arshin gazlama mahsulotlari mavjud bo'lgan. Shu kabi moddiy rag'bat choralarning qo'llanilishi Xorazm Respublikasida paxta yetishtirish hajmining keskin o'sishiga turtki bo'ldi. Jumladan, 1921–1922 yillarda Xorazm Respublikasida umumiy ekin maydoni 461 666 tanobni tashkil etgan bo'lsa, 1923–1924 yillarga kelib bu ko'rsatkich 509 555 tanobgacha oshgan. Shu davr ichida paxta ekiladigan yer maydoni 3 ming desyatinadan (1 desyatina  $\approx$  1,08 gektar) 18 ming desyatinagacha kengaygan. Paxtaning yalpi hosili 1922-yilda 250 ming pud bo'lgan bo'lsa, 1924-yilga kelib 800 ming pudga yetgan[13]. Ammo oziq-ovqat ekinlarining sug'oriladigan maydonlari paxta ekish uchun ajratilib, natijada oziq ovqat muammosi o'kirlashadi.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasida paxtachilik tarmog'ini kengaytirish va uni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash maqsadida 1923-yil 19-fevralda Rossiya–Xorazm davlat paxtachilik shirkatiga asos solindi. Bu shirkat XXSRda paxtachilik siyosatini tizimli yuritish va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan bir qator asosiy vazifalarni bajardi. Jumladan:

1. Paxta ekiladigan yer maydonlarini kengaytirish va bu jarayonga moliyaviy ko'mak ko'rsatish;
2. Respublika hududida joylashgan paxta tozalash, yog' va sovun ishlab chiqaruvchi zavodlarni ro'yxatga olish va ularni faoliyatga qaytarish;
3. Paxta xom ashyosining savdo aylanmasini yo'lga qo'yish, sotish va sotib olish jarayonlarini tashkil qilish;
4. Dehqon xo'jaliklariga kredit ajratish va Rossiya hamda xorijiy savdo shirkatlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish;
5. RSFSR va boshqa ittifoqdosh respublikalardan paxta evaziga keladigan mahsulotlarni olib kirish va ularni hudud bo'ylab taqsimlash;

6. Paxta tozalash va yog' mahsulotlarini ishlab chiqarishda zarur bo'lgan uskunalarni chet eldan olib kirish, bu jarayonni SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi bilan kelishilgan holda amalga oshirish;
7. Rossiya hududida shirkat tasarrufidagi paxta mahsulotlarini saqlash, ularni temir yo'l va suv yo'llari orqali yetkazib berishni ta'minlash.

1923-yil 21-noyabr kuni Xorazm Iqtisodiy Kengashi o'z faoliyati yuzasidan Xorazm Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasiga hisobot topshirgan. Unda keltirilishicha, o'tgan yarim yil mobaynida shirkat tomonidan Xorazm hududida 6 ta paxta qabul qilish punkti tashkil etilgan. Shuningdek, 3 ta paxta tozalash zavodi ta'mirlanib, ishga tushirishga tayyor holatga keltirilgan. Hisobotda, shuningdek, 20 vagon paxta tolasi Moskvaga jo'natilgani va yana 25 ming pud paxta xom ashyosi jo'natishga tayyor ekani ta'kidlangan[14].

Rus-Xorazm paxtachilik shirkati yuridik huquqqa ega bo'lib, o'z nomi aks etgan muhrga ega bo'lgan. Shirkatning asosiy mablag'i 1500000 rubl bo'lib, Sarmoyaning 50%, Xorazm Iqtisodiy Kengashiga, qolgan 50% esa RSFSRga tegishli bolgan[15].

Rus-Xorazm paxtachilik shirkati Xorazmda paxtachilikni tiklanishida salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Shuningdek, paxtachilikni rivojlanishi birinchi navbatda Xorazm qishloq xo'jaligining tiklanishiga yordam berdi, xususan qo'riq yerlar o'zlashtirilib, paxta maydonlari ko'paygan, yangi yerlarni sug'orish uchun mashina nasoslaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan, urush davrida vayron bo'lgan paxtachilik sanoati qayta tiklangan. Ammo yetishtirilgan butun paxta hosili Rossiyaga olib ketilgan.

#### **Xulosa:**

Xorazmda paxtachilikning qayta tiklanishi ikki asosiy yo'nalishda o'z aksini topdi. Bir tomondan, bu jarayon aholining mehnat resurslarini paxtachilikka jalb etish orqali yangi agrar tuzumni shakllantirishga xizmat qildi. Paxta yetishtirish bilan shug'ullangan dehqonlarga davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, asbob-uskunalar, urug'lik va soliq yengilliklari taqdim etildi. Biroq bu yordamlar asosan paxtachilik tarmog'iga qaratilgan bo'lib, boshqa ekin turlariga nisbatan befarqlik kuzatildi. Ayniqsa, paxtachilik bilan bog'liq tarzda olib borilgan yer-suv siyosati bu jarayonning muhim poydevoriga aylandi. Sug'orish tizimlarining kengaytirilishi, yangi ariq va kanallarning qazilishi, mavjud inshootlarning ta'mirlanishi paxta ekin maydonlarining ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Suv resurslaridan foydalanish imkoniyatining nisbiy yaxshilanishi esa ko'p hollarda faqat paxtachilik ehtiyojlariga xizmat qildi.

Boshqa tomondan, paxtachilik siyosati Sovet Rossiyasining iqtisodiy strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, Xorazm bu yo'nalishda xom ashyo bazasi sifatida safarbar etildi. Paxta sanoat uchun eng muhim xom ashyo bo'lgani sababli, Xorazmda paxtachilikni tezda tiklash Rossiya markaziy hukumatining ustuvor vazifasiga aylandi. 1923-yilda tashkil etilgan Rossiya – Xorazm davlat paxtachilik shirkati aynan shu ehtiyojlar asosida tuzilgan bo'lib, paxta yetishtirishni tashkil etish, zavodlarni ishga tushirish, transport tizimini yo'lga qo'yish va mahsulotlarni RSFSRga yetkazib berishni o'z zimmasiga oldi. Bunda Xorazmning mavjud yer-suv imkoniyatlari va inson resurslari Rossiyaning paxta siyosatini amalda ta'minlashga xizmat qildi.

#### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Birinchi kitob 1917-1939-yillar. – Toshkent.: Ozbekiston, 2019. – B. 116. (History of Uzbekistan (1917-1991). First book 1917-1939. – Tashkent.: Uzbekistan, 2019. – P. 116.)
2. Madaminova B. Xorazm Xalq Sovet Respublikasidagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar (1920–1924 y.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2020. – B. 13. (Madaminova B. Social and economic relations in the Khorezm People's Soviet Republic (1920–1924). ABSTRACT of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences. – Tashkent: 2020. – P. 13.)
3. Qo'shjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi choragi). – T.: “Abu matbuot-konsalt”, 2007. – B. 171.

- (Qoshjonov O., Polvonov N. Socio-political processes and movements in Khorezm (second half of the 19th century - first quarter of the 20th century). – T.: “Abu press-consult”, 2007. – P. 171.)
4. Matniyozov M. “Xorazm tarixi”. 2-jild. – Urganch: 1997 y. – B. 43. (Matniyozov M. “History of Khorezm”. Volume 2. – Urgench: 1997. – P. 43.)
  5. O‘z MA, R-71-fond, 1-ro‘uxat, 45-ish, 29–41 varaqlar. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-71, List 1, File 45, pages 29–41.)
  6. O‘z MA, R-74-fond, 1-ro‘uxat, 31-ish, 93–99 varaqlar. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-74, List 1, File 31, pages 93–99.)
  7. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент.: “Ўзбекистон фйласуфлари миллий жамияти”, 2013. – Б. 260. (Khorezm in the history of statehood of Uzbekistan – Tashkent.: "National Society of Philosophers of Uzbekistan", 2013. - B. 260.)
  8. 50 лет Хорезмской народной советской революции. Материалы объединенной научной сессии. г.Хива – г.Ургенч. 3-4 декабря 1970 г. - Т.: Фан, 1972. –Б. 192. (50 years of the Khorezm People's Soviet Revolution. Materials of the joint scientific session. Khiva - Urgench. December 3-4, 1970. - T.: Fan, 1972. - B. 192.)
  9. Сатликов А. Из истории развития ирригации в Хорезме (1920 – 1941). Автореферат. – Ташкент.:1967. – С. 12. (Satlikov A. From the history of irrigation development in Khorezm (1920 – 1941). ABSTRACT. – Tashkent.:1967. – P. 12.)
  10. Saidov Sh. Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashqi munosabatlari va savdo aloqalari (1920–1924 y.). Monografiya. – Toshkent: “Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti”, 2007. – B. 49. (Saidov Sh. Foreign relations and trade relations of the Khorezm People's Soviet Republic (1920–1924). Monograph. – Tashkent: “Tashkent State Institute of Oriental Studies”, 2007. – P. 49.)
  11. Rajabov Q. O‘zbekiston XX asrda. Birinchi jild (1900–1939). – Toshkent: Fan, 2024. – B. 396. (Rajabov K. Uzbekistan in the 20th Century. Volume One (1900–1939). – Tashkent: Fan, 2024. – P. 396.)
  12. История Хорезмской Народной Советской Республики (1920-1924 гг.). Сборник документов. – Ташкент: Фан, 1976. – С. 137. (History of the Khorezm People's Soviet Republic (1920-1924). Collection of documents. – Tashkent: Fan, 1976. – P. 137.)
  13. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 224. (New History of Uzbekistan. Book 2. Uzbekistan during the Soviet colonial period. – Tashkent: Sharq, 2000. – P. 224.)
  14. O‘z MA, R-73-fond, 1-ro‘uxat, 29-ish, 230-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-73, List 1, File 29, page 230)
  15. Pardaev A. Buxoro va Xorazmdagi iqtisodiy kengashlar faoliyati (1920–1924 y.). – T.: “Yangi nashr”, 2015. – B. 97. (Pardaev A. The activities of economic councils in Bukhara and Khorezm (1920–1924). – T.: “Yangi nashr”, 2015. – P. 97.)



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 6

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000